



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA O'QUV JARAYONINI LUG'ATLAR BILAN TA'MINLASHNING HOZIRGI HOLATI

Tursunova Ozoda Faxritdinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika,

psixologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8076634>

ARTICLE INFO

Received: 15th June 2023

Accepted: 23th June 2023

Online: 24th June 2023

KEY WORDS

Leksikologiya, lug'atchilik,
o'quv lug'ati, leksikografiya,
ehtijoj, darslik, dastur, ijodiy
tafakkur.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ona tili o'qitish metodikasi kursining maqsad va vazifalari, savod o'rgatishda o'quv lug'atlarining o'rni va maktablardagi hozirgi holati va o'quvchilar nutqini o'stirishda, ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishdagi o'rni, metodikalari bayon qilingan. Shu bilan birga ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari ochib berilgan.

Ehtiyojlarga mos o'quv lug'atlari, keyin esa leksik hamda frazeologik minimumlar, lug'at tipidagi qo'llanmalar va h.larni tuzish, so'ngra, o'quv jarayoni talablariga javob beruvchi barcha lug'atlar majmuasi bilan ta'minlashni tushunish lozim.

Ijtimoiy tafakkurni yuksaltirishda lug'atlarning roli beqiyosligi jahon tajribasida allaqachon o'zini oqlagani ma'lum. Insonning mustaqil fikrlash, ong mahsulini xatosiz va ravon bayon qilish qobiliyati, ijodiy tafakkurini o'stirish harakatlari, odatda, maktab partasidan boshlanadi. Bunda ta'limiy vositalar sirasida lug'atlar alohida ahamiyat va maqomga ega. Shu ma'noda O'zbekistonda kichik va o'rta yoshdagi ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan maxsus lug'atlar yaratilganmi, o'quvchining qo'lida qanday lug'atlar bor, umuman, lug'atchilikning ahvoli qay darajada, degan savollarning qo'yilishi muqarrar va o'rinli.

To'g'ri, mustaqillikka erishganimizdan keyin lug'atchilik birmuncha jonlandi; siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy jihatdan eskirgan lug'atlarni qayta nashr qilish, yangilash bo'yicha kattagina ishlar amalga oshirildi – tilimizning lug'at xazinasini ancha boyidi. Biroq bu bilan uni rivojlangan davlatlar darajasiga etdi deb ayta olmaymiz. Internet qidiruv tizimida maktab o'quvchisi uchun mo'ljallangan o'quv lug'atini izlash bo'yicha topshiriq berilsa, ingliz, rus, fransuz, ispan, nemis, xitoy, koreys, ukrain, yapon, tatar, qozoq tillarida son-sanoqsiz yangi avlod lug'at-qo'llanmalari yaratilgani, ularning internet magazinlarda bozori chaqqon ekanligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tilida maktab o'quvchisi yoki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan lug'atlar sanoqli, ular ham o'quv lug'atiga qo'yilgan xalqaro talablarga to'la javob bera olmaydi.

Davlatimiz rahbarining nutqlarida "O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy



resurslar va mablag'larni aslo ayamashligimiz kerak. ... ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak¹”, degan kechiktirib bo'lmas ijtimoiy vazifaning qo'yilishi, shuningdek, yosh avlodni ma'nan baquvvat, til sezgirligi kuchli, mustaqil tafakkurli, izlanuvchan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib yetishtirish mas'uliyati o'quv lug'atiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'zbek tilshunosligi fani oldiga jahon o'quv leksikografiyasi an'alariga asoslangan holda o'zbek o'quv lug'atchiligi nazariyasini shakllantirish, uning ilmiy-lingvistik, lingvodidaktik, psixolingvistik, sociolingvistik, lingvometodik (lingvopedagogik), kognitolingvistik asoslarini ishlab chiqish, o'quv lug'atlarini yaratish tamoyillarini aniqlashtirish, bugungi zamonaviy lingvistik va metodik talablarga javob beradigan o'quv lug'atlarini yaratish talablarini qo'yimoqda.

Zero, professor B.Mengliyev o'rinli ta'kidlaganidek, “O'quv lug'atlari zarurligi haqida ko'p gapirib va yozib kelinmoqda. O'quv lug'atlari yaratilmas, o'quvchilarning stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko'plab o'quv lug'atlari turmas, buning uchun o'quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilmas ekan, ona tili ta'limi o'zining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi”².

Ona tili o'quv predmetining Milliy o'quv dasturida ham o'zbek tilini o'qitishdagi mavjud muammolar haqida: “Maktabda o'quvchiga darslikdan boshqa ta'limning o'quv vositalari taqdim etilmadi va bu holat hamon davom etmoqda. O'zbek tili fanining o'quv va ilmiy metodik ta'minoti (lug'at va qomuslar, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, multimedia, mobil ilova va boshqa didaktik materiallar) yetarli darajada ishlab chiqilmadi. Natijada ularda ta'limning yordamchi o'quv vositalaridan foydalanish malakasini hosil qiladigan mustaqil izlanish tajribasi shakllanmadi”³, deyiladi.

O'quv leksikografiyasi tarixi, bu sohada jahon tilshunosligining qo'lga kiritgan yutuqlari, o'zbek o'quv lug'atchiligining ahvoli, bugungi kunda bu sohada olib borilayotgan ishlar, yangi avlod o'quv lug'atini yaratish masalalari xususida to'xtalishdan avval, o'quv lug'ati nima, u boshqa lug'atlardan nimasi bilan ajralib turadi, nima uchun rivojlangan davlatlarda leksikografiyaning aynan ushbu tarmog'i eng zaruriy sohaga aylangan degan savollarga oydinlik kiritib lozim.

Manbalarga ko'ra, rus lug'atchiligida 1926 yili E.D.Polivanovning “Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at”i nashr etiladi va muallif shu lug'atini “Учебный словарь”, ya'ni o'quv lug'ati deb nomlaydiki, bu rus maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan ilk lug'at edi⁴.

Lug'atlar ichida o'quv lug'atlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv lug'atlari maktab dasturi bilan uzviy aloqador bo'lgan didaktik vosita hisoblanadi. Demak, ular ta'lim jarayonining ajralmas atributidir.

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлгимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.

²Менглиев Б.Р. “Она тили”мизни тилшунослик исканжасидан кутқарайлик! [Электрон ресурс]. URL: <https://soglom.uz>

³ Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. (Loyiha).– Toshkent: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.–252 b.– 37-b.

⁴Скопина М.А. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря //Теоретические основы разработки словарей учебного типа: Сб. научных трудов. – М., 1981.– 58-70-с.



O'quv lug'atlarida mazkur didaktik vosita kimga va nimaga mo'ljallanganiga qarab grammatik izoh hamda eslatmalar (so'zning morfologik mohiyati, turkumiy strukturasi, o'zak va affikslar ajratilishi, yasovchi qo'shimchalari, grammatik shakllari, to'g'ri yozish qoidalari) beriladi. Bularning barchasi o'quvchiga o'zbek tili so'z qurilishini anglashiga yordam beradi.

Ona tili darslarida va uy vazifasini bajarayotgan paytda o'quvchi qo'li ostidagi lug'atlarga murojaat etadi, kerakli ma'lumotlarni oladi, chunki darsliklarda berilgan mavzu chegaralangan miqdordagi misollar bilan isbotlanadi, lug'atda esa butun boshli so'zlar xazinasini to'plangan. O'quv lug'atlari darslikning foydali, zaruriy qo'shimcha qismidir.

Tilshunos olim B.Bahriddinovaning ma'lumot berishicha, "o'quv lug'atchiligi" terminining ilk ta'rifini L.A.Novikovga tegishli. L.A.Novikov "O'quv leksikografiyasi va uning vazifalari" nomli maqolasida shu tipdagi lug'atlarning vazifalari, muammolari va o'quv lug'ati tiplari xususida mulohaza yuritadi va o'quv lug'atini: "hajman kichik va katta ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya" deya ta'riflaydi⁵. Demak, o'quv lug'ati muayyan ko'zlangan maqsad asosida tartiblangan, o'quv-metodik talablarga javob bera oladigan, odatda, hajman kichik, o'quvchiga zaruriy ma'lumotlarni tezkor va qulay taqdim etadigan kitob sanaladi.

Rus leksikografiyasida XX asrning 70-yillarida o'quv lug'atchiligi alohida tarmoq sifatida ajralib chiqqan va o'ziga xos nazariy asosi, maqsad hamda vazifasiga ega bo'lgan lingvometodik yo'nalish sifatida tanilgan. "Uning asosiy rivojlanish yo'nalishlari, bir tomondan, o'quv jarayoni -ta'limning umumiy maqsadi, ikkinchi tomondan - lingvistik maqsad, uning rivojlanish mantig'i bilan belgilanadi"⁶. Darhaqiqat, o'quv lug'atchiligi rivojlanishi ham leksikografiya, ham lingvodidaktika taraqqiyotiga bog'liq. Shunga ko'ra, didaktikada o'quv lug'atiga lingvodidaktik vosita sifatida qarash an'anasi mavjud. Bu borada V.V.Morkovkinning "O'quv leksikografiyasi maxsus lingvometodik yo'nalish sifatida" nomli maqolasi metodologik asos vazifasini o'tadi⁷. V.V.Morkovkin ta'rificha, "ma'lumot olish, til o'rganishga yordam berish maqsadida maxsus yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asarga o'quv lug'ati deyiladi".

O'quv lug'atlari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi, ta'lim berishga mo'ljallanganligi, hajm jihatidan ma'lum me'yorlarga solinganligi, shuningdek, o'qitishdagi qaysidir fan yoki o'quv predmeti tarkibidagi mavzular mohiyatini chuqurroq ochishga qaratilganligi, ya'ni lingvodidaktik xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Zero, soha mutaxassislari o'quv lug'atchiligi alohida lingvometodik yo'nalish, an'anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida paydo bo'lgan fan sifatida tan olishadi⁸.

⁵Новиков Л.А. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии. – М.: МГУ, 1969. –3-11-с.

⁶Саяхова Л.Г. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Словарь в системе филологического образования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Уфа, 2001. – 22-25-с.

⁷Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. –М.: Русский язык, 1977. –28-37-с.

⁸Qarang: Morkovkin V.V. Osnovy teorii uchebnoy leksikografii: Diss. ... d-ra filol. nauk (v forme nauchnogo doklada). – M., 1990.; Denisov P.N. Uchebная leksikografiya: itogi i perspektivy. Problemy uchebnoy leksikografii. –M.: Izd.-vo Mosk.un-ta, 1977.



Zotan, o'quv lug'atlarida lingvistik va metodik maqsadlar kesishadiki, mazkur lug'atlar, bir tomondan, muayyan fan yoki o'quv predmetining dastur-u darsligida ta'lim oluvchi o'rganishi uchun berilgan til materialining kengaygan (yoki qo'shimcha; batafsil, ba'zan lo'nda holatini) taqdim qilsa, ikkinchi tomondan, ushbu materialni o'quvchiga qanday yetkazish muhim, degan savolga ham javob berishi kerak. O'quv lug'atiga ayrim leksikograflarning «tilni o'qitish maqsadi bilan tasvirlaydigan vosita»⁹, deb ham ta'rif berishlari ham bejizga emas. Aslida, mazkur ta'rifda o'zaro mustaqil fanlar maqsadi uyg'unlashadi va shu zaylda tilshunoslik, pedagogika va metodika fanlari oralig'ida yangi lingvodidaktik yo'nalish, ya'ni o'quv lug'atchiligi takomil topib boraveradi.

Demak, o'quv lug'atlarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'rta umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning nazariy asoslarini quyidagicha belgilash mumkin:

o'rta umumta'lim maktablari ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv lug'atlari tahsil oluvchilarning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishi;

lingvodidaktik xarakterga ega bo'lishi;

ta'limiy maqsadga yo'nalgan bo'lishi;

muayyan fan yoki o'quv predmeti tarkibidagi mavzular mohiyatini chuqurroq ochishga mo'ljallanganligi bilan boshqa lug'atlardan ajralib turishi;

maktab ona tili darsliklariga ilova tarzida yaratilishi;

maktab o'quvchilarining qo'lga oson va tez yetib borishi inobatga olinishi;

shuningdek, ularni doimiy yangi ma'lumotlar bilan boyitib borish imkoniyati bo'lishi muhim.

Xullas, maktab o'qituvchilarida ham, o'quvchilarida ham leksikografik kompetentlikni oshirish va buning uchun uzluksiz ta'limning maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlari uchun leksik, grammatik, me'yoriy lug'atlar, leksik minimumlar, o'quv terminologik lug'atlar, o'quv assosiativ lug'atlar, o'quv ensiklopedik lug'atlarni tuzish va ularni elektronlashtirish asosida o'quv-tezauruslar, korpuslar, onlayn va oflayn tartibda ishlashga mo'ljallangan kompyuter lug'atlarini yaratish o'ta ahamiyatli.

References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // "Халқ сўзи" газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.
2. Менглиев Б.Р. "Она тили"мизни тилшунослик исканжасидан қутқарайлик! [Электрон ресурс]. URL: <https://soglom.uz>
3. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. (Loyiha).– Toshkent: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.–252 b.– 37-b.
4. Скопина М.А. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря // Теоретические основы разработки словарей учебного типа: Сб. научных трудов. – М., 1981.– 58-70-с.

⁹Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ... д-ра филол. наук // – Москва: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990. – С.8.



5. Новиков Л.А. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии. – М.: МГУ, 1969. –3-11-с.
6. Саяхова Л.Г. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Словарь в системе филологического образования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Уфа, 2001.– 22-25-с.
7. Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. –М.: Русский язык, 1977. –28-37-с.
8. Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ... д-ра филол. наук // – Москва: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990. – С.8.
9. Турсунова Озода. (2023). Актуальность применения лексикографической техники в организации учебного процесса на уроках русского языка, как родного. Academic research in modern science, 2(12), 101–103. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7817447>
10. Tursunova, O. (2023). Organization of the educational process during the lessons of russian as a native language, including the study of lexical composition based on lexicographic methods, in particular, the specifics of paronyms. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(4), 93–96. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12287>
11. Tursunova, O. (2023). Organization of the educational process during the lessons of russian as a native language, including the study of lexical composition based on lexicographic methods, in particular, the specifics of paronyms. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(4), 93–96. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12287>
12. [The possibilities of using textbooks during mother tongue classes](#) T Ozoda.ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal 5 (5), 408-418
13. Tursunova Ozoda . On the use of study dictionaries in mother language lessons of general secondary schools //EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH//14-19
14. Principles of creating the "annotated dictionary of paronyms" for secondary school students O.F. Tursunova 2022/10/22 //Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture//2/216-223
15. Tursunova O. [High human feelings in Rudakis work.](#)// Theoretical & Applied Science/986-99
16. Tursunova, O. (2023). Organization of the educational process during the lessons of russian as a native language, including the study of lexical composition based on lexicographic methods, in particular, the specifics of paronyms. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(4), 93–96. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12287>.
17. Бекчанова, С. (2023). Становление человека личностью сквозь призму педагогической и культурной реальности. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 4), 32–36. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/13213> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7867146>.



18. Бекчанова Солиха Давлатназаровна. (2022). Шахсинг касбга бўлган қизиқиши, лаёқати ва қобилиятларини амалий ўрганишда жаҳон тажрибаси. Eurasian journal of academic research, 2(12), 774–780. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7353435>.
19. Бекчанова Солиха Давлатназаровна. (2022). Основные составляющие нравственного воспитания и развития личности школьника. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6483370>.
20. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev, Najmiddin Bakaevich Bakaev, Nafisa Zainiddinovna Tasheva Studying philosophical realities of the renaissance epoch, based on the structural analysis of philosophical texts // Academic research in educational sciences. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/studying-philosophical-realities-of-the-renaissance-epoch-based-on-the-structural-analysis-of-philosophical-texts>.
21. Shahob Sharofitdinovich Shodiev. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal "Interpretation of philosophical terms and concepts as an essential subject for linguistic researches of xix-xx centuries, held in russia and Europe" 590-98 10.5958/2249-7137.2020.01171.4
22. Sh.Sh.Shodiyev. N.B.Bakayev. M.N.Khafizova, S.N.Ostonova " shakespears lexicon: reason word as a design of the concept of the ability of the human mind to abstraction, conclusion " Theoretical and Applied Science, 162-166, 2020
23. Ш.Ш. Шодиев, Д.Я.Шигабутдинова. «шекспировский лексикон: слово reason как обозначение понятия способности человеческого ума к абстракции умозаключению» Инновационный потенциал развития науки в современном мире, 189-197, 2020
24. Shodiyev Shaxobiddin Sharofiddinovich, & Tasheva Nafisa Zayniddinovna. (2021). The role of the way of the great steppe in the continuity and relationship of the philosophy and culture of the muslim east and the renaissance west. Innovative Academy Research Support Center, 1(3), 9–13. <http://doi.org/10.5281/zenodo.4925956>
25. Shodiev Shahobiddin Sharofiddinovich, & Majitova Nafisa Zokirovna. (2021). Ideas about an ideal person, language, prosperity in the evolution of public and political views of the uzbek jadids of the beginning of the xx century. Eurasian Journal of Academic Research, 1(3), 5–8. <http://doi.org/10.5281/zenodo.4925897>